

## 8-sinf O'zbekiston tarixi,

### II bob bo'yicha testlar

#### II bob, 1-variant

- 1601-yilda Buxoro xonligida ...  
A) Shayboniylar sulolasining hukmronligi barham topdi.  
B) oliy hokimiyat Ashtarxoniylar sulolasi qo'lga o'tdi.  
C) Dinmuhammadning hukmronligi boshlandi. D) A va B
- Rossiya Astraxan xonligini qachon bosib oldi?  
A) 1552-yilda B) 1556-yilda C) 1601-yilda D) 1605-yilda
- Ashtarxoniylar sulolasi mamlakatni necha yil idora qildi?  
A) 157 yil B) 175 yil C) 517 yil D) 571 yil
- Xronologik xatoni toping.  
A) 1602-yilda Boqi Muhammad Eron Safaviylariga zarba berib, Balxni bo'ysundurdi.  
B) 1603-yilda Boqi Muhammad Balxga hujum qilgan Eron qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi.  
C) 1604-yilda Boqi Muhammad qozoq xoni Kelimuhammad qo'shinlarini mamlakat hududidan haydab chiqardi.  
D) Xronologik xato yo'q.
- Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Ashtarxoniy hukmdorlar qaysi javobda to'g'ri xronologik tartibda berilgan?  
A) Joni Muhammad – Vali Muhammad – Imomqulixon  
B) Dinmuhammadxon – Boqi Muhammadxon – Imomqulixon  
C) Boqi Muhammadxon – Vali Muhammad xon – Imomqulixon  
D) Vali Muhammadxon – Nodir Muhammadxon – Abdulazizxon
- XVII asrda kimlar Buxoro xonligi hududlariga harbiy yurishlar qildi?  
A) Qozoq sultonlari B) Xiva xonlari C) Eron shohlari D) A, B, C
- Joniylar sulolasining qaysi hukmdori Toshkent shahri aholisini qirg'inbarot qildi?  
A) Abdulazizxon B) Imomqulixon C) Subhonqulixon D) Ubaydullaxon
- Qaysi ashtarxoniy hukmdor davrida markaziy hokimiyat nisbatan mustahkamlandi?  
A) Imomqulixon B) Nodir Muhammadxon C) Abdulazizxon D) Subhonqulixon
- Nadrmuhammadxon necha yil hukmronlik qildi?  
A) 1 yil B) 2 yil C) 3 yil D) 8 yil
- Toju taxtni qaytarib olish maqsadida Nadrmuhammad kimga yordam so'rab murojaat etdi?  
A) Hindiston podshohi Shohjahonga B) Eron shohi Abbos I ga  
C) Xiva xoni Anushaxonga D) Qozoq sultoni Tavakkulga
- 1655-yilda Buxoro atroflarini talon-toroj qilib ketgan Xiva xoni kim edi?  
A) Asfandiyorxon B) Elbarsxon C) Abulg'ozixon D) Anushaxon
- Samarqand shahrini ishg'ol qilib, bu yerda o'zining nomidan pul zarb etgan Xiva hukmdorini aniqlang.  
A) Abulg'ozixon B) Anushaxon C) Erengxon D) A, B, C
- Subhonqulixon kimning yordami bilan Xiva qo'shinlarini Samarqanddan quvib chiqardi?  
A) Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliq yordamida  
B) Balx hokimi Muhammad hoji otaliq yordamida  
C) Balx hokimi Siddiq Muhammad yordamida  
D) Farg'ona hokimi Sulton to'qsabo yordamida
- 1688-yilda Subhonqulixon kimni Xivaning hokimi etib tayinladi?  
A) Anushaxonni B) Erinaxonni C) Shohniyozni D) Mahmudbiy qatag'onni
- Ashtarxoniylar mamlakat iqtisodiyotini chuqur tanazzulga olib kelgan omillarni aniqlang.  
A) Qirg'inbarot urushlar B) Ichki nizolar C) Pul muomalasining izdan chiqishi D) A va B
- Ashtarxoniy Ubaydullaxon hukmronlik qilgan davr – bu ...  
A) 1645-1680-yy. B) 1680-1702-yy. C) 1702-1711-yy. D) 1711-1747-yy.
- 1706-yilda Balxda to'liq hokimiyatni qo'lga olib, o'zini xon deb e'lon qilgan arbob kim?  
A) Mahmudbiy otaliq B) Yalangto'shbiy bahodir C) Xoja Davlat saroy D) Ma'sumbiy otaliq
- XVIII asr boshlarida Farg'onada hokimiyatni egallab, bu yerda mustaqil Qo'qon xonligiga asos solgan arbob kim?  
A) Muhammad Hakimbiy B) Shohruhbiy C) Ma'sumbiy otaliq D) Erdonabiy
- Ubaydullaxon o'ldirilgandan so'ng Buxoro taxtiga kim o'tqazildi?  
A) Abdulmo'min B) Ibrohimbiy C) Abulfayzxon D) Rajabbiy
- «Registon tinch bo'lsa bas». Ushbu so'zlar kimga tegishli?  
A) Abdullaxon II ga B) Jonimuhammadga C) Subhonqulixonga D) Abulfayzxonga
- Abulfayzxon davrida Buxoro xonligining siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan shaxsni aniqlang.  
A) Mas'um otaliq B) Muhammad Hakimbiy otaliq C) Xoja Davlat saroy D) Mahmudbiy qatag'on

22. XVIII asrda Samarqandda xon deb e'lon qilingan shaxsni aniqlang.  
 A) Rajab sulton B) Ibrohimbiy kenagas C) Yalangto'shbiy D) Mahmudbiy qatag'on
23. Abulfayzxon davrida ... yetti yil davomida Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga talonchilik yurishlarini uyushtirdilar.  
 A) xivaliklar B) eronliklar C) qozoqlar D) afg'onlar
24. Eronliklarning 1736-yilda Buxoro xonligiga qilgan yurishiga kim boshchilik qildi?  
 A) Rizoqul B) Nodirshoh C) Tahmasb D) Ismoil Safaviy
25. Buxoro xonligi qachon Eronga qaram davlatga aylandi?  
 A) 1702-yilda B) 1739-yilda C) 1740-yilda D) 1747-yilda
26. 1740-yilda Buxoro xonligi va Eron o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra ...  
 A) Buxoro xonligi Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 yilga etadigan 200 ming xarvor bug'doy va arpa to'plab beradi.  
 B) Buxoro xonligi aholisidan 10 ming nafari qo'shin to'planib, Nodirshoh ixtiyoriga jo'natiladi.  
 C) Bu qo'shinga Muhammad Hakimbiy qo'mondon etib tayinlanadi.  
 D) A, B, C
27. Nodirshoh va Abulfayzxon o'rtasidagi sulh shartnomasi imzolangandan so'ng Buxoro xonligining qushbegisi (bosh vaziri) lavozimini kim egalladi?  
 A) Muhammad Rahimbiy B) Muhammad Hakimbiy C) Javshan qalmiq D) Ibrohimbiy kenagas
28. Ashtarxoniylar davrida saroy qutvoli lavozimi joriy etilgan. U qanday vazifani bajargan?  
 A) Qurilish va obodonchilik ishlariga javobgar bo'lgan. B) Saroy komedanti vazifasini bajargan.  
 C) Xonning xavfsizligini ta'min etadigan harbiy qism boshlig'i bo'lgan.  
 D) Qo'shin ta'minoti bilan shug'ullangan.
29. Qaysi sulola hukmronligi davrida Buxoro xonligida siyosiy tarqoqlik va parokandalik har qachongidan kuchaydi?  
 A) Shayboniylar B) Ashtarxoniylar C) Mang'itlar D) A va B
30. Ashtarxoniylar davrida yer egaligining qanday shakllari mavjud edi?  
 A) mulki sultoniy B) xususiy mulk C) vaqf yerlari D) A, B, C
31. Davlat yerlarini shahzodalarga, yirik ulamolar va sayyidlarga in'om etilishi nima deb atalar edi?  
 A) tanho B) suyurg'ol C) iqto' D) inju
32. Xon tomonidan ayrim shaxslarga alohida xizmatlari uchun in'om etilgan yer-mulk nima deb atalar edi?  
 A) feod B) mulki xos C) tanho D) mulki hurri xolis
33. Vaqf mulklaridan qancha soliq olinar edi?  
 A) Hosilning 1/4 qismi B) Hosilning 1/3 qismi  
 C) Hosilning 1/10 qismi D) Soliq olinmas edi.
34. Buxoro xonligida barcha shakldagi yerlar ...  
 A) soliqlardan ozod qilingan. B) davlat mulki hisoblanar edi.  
 C) dehqonlarga ijaraga berilar edi. D) Barcha javoblar to'g'ri.

#### 8-sinf O'zbekiston tarixi, II bob, 2-variant

1. Qaysi hukmdor davrida Qarshi cho'lini o'zlashtirish uchun kanal qazilgan edi?  
 A) Imomqulixon B) Abdulazizxon C) Subhonqulixon D) Ubaydullaxon
2. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida rivoj topgan hunarmandchilik sohalarini aniqlang.  
 A) to'qimachilik B) kulolchilik C) metall va yog'ochga ishlov berish D) A, B, C
3. Buxoro xonligida savdo-sotiq ishlarida qaysi shaharlarning mavqei baland bo'lgan?  
 A) Buxoro, Samarqand B) Qarshi, Toshkent, Balx C) Qo'qon, Andijon D) A va B
4. Buxoro xonligidan Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Qoshg'ar, Turkiya singari mamlakatlarga qanday tovarlar chiqarilgan?  
 A) paxta, teri, jun B) turli matolar C) qishloq xo'jalik mahsulotlari  
 D) Barcha javoblar to'g'ri.
5. Xalqdan 7 yillik soliqni bir yo'la to'lashni talab qilgan hukmdor kim?  
 A) Xalil Sulton B) Kuchkunjiyon C) Imomqulixon D) Subhonqulixon
6. XVIII asrda Buxoro xonligida qaysi hukmdor o'tkazgan pul islohoti salbiy oqibatlariga olib keldi?  
 A) Muhammad Shayboniyxon B) Kuchkunchixon  
 C) Ubaydullaxon II D) Abdullaxon II
7. Ashtarxoniylar davrida maktablarda o'qitilgan kitoblar – bu ...  
 A) "Haftiyak", "Chorkitob" B) Navoiy, Fuzuliy, Bedil kitoblari

- C) Mashrab, Hofiz Sheroziy, So'fi Oллоhуor asarlari D) Yuqoridagilarning barchasi.
8. Buxoro xonligi shaharlarida ... madrasa bo'lgan.  
A) 100 dan ortiq B) 150 ga yaqin C) 150 dan ortiq D) 200 ga yaqin
9. Madrasalarda qaysi fan majburiy kurs hisoblangan?  
A) fiqh B) kalom C) arab tili D) tarix
10. Ashtarxoniylar zamonida madrasalarda o'qitilgan fanlar qaysi javobda noto'g'ri berilgan?  
A) falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo B) tarix, jug'rofiya, aruz ilmi, xattotlik  
C) musiqa, axloq, notiqlik san'ati D) me'morchilik asoslari, biologiya, fizika
11. Ashtarxoniylar zamonida ilm-fan taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omilni aniqlang.  
A) Iqtisodiy qoloqlik B) Diniy mutaassiblik  
C) O'zaro ichki urushlar D) Yuqoridagilarning barchasi.
12. XVII asr taniqli olimi Muhammad Sharif Buxoriy ...  
A) Mir Arab madrasasining mudarrisi bo'lgan.  
B) falsafa, tasavvuf, tarix, fiqh, tilshunoslik va astronomiga doir 20 dan ortiq asar yozgan.  
C) "Davriylik haqida risola" va "Xoqonga foydali maslahatlar" nomli kitoblar muallifidir.  
D) Barcha javoblar to'g'ri.
13. Mulla Yusuf Qorabog'iyning bizgacha yetib kelgan asari ilmning qaysi sohasiga bag'ishlangan?  
A) matematika, handasa B) kimyo, astronomiya  
C) falsafa va mantiq D) falakiyot, ilmi hay'at
14. Mahmud ibn Vali qalamiga mansub "Bahr ul-asror" asarining yozilgan sanasi ....  
A) 1636-y. B) 1644-y. C) 1678-y. D) 1721-y.
15. Buxoro xoni Subhonqulixonning tibbiyot sohasidagi xizmatlari nimadan iborat?  
A) Uning tashabbusi bilan Buxoroda "Dor ush-shifo" qurilib, bemorlar davolangan.  
B) Buxoroda tibbiyotga ixtisoslashgan madrasa qurilib, shifokorlar tayyorlangan.  
C) Subhonqulixonning tibbiyotga doir nodir kutubxonasi bo'lgan.  
D) "Subhoniylar tibbiyoti bo'yicha davolash" nomli kitob yozgan.  
E) Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri
16. XVI-XVIII asr boshlari tarixini bayon etuvchi asarlarni aniqlang.  
A) «Ubaydullanoma» B) «Abulfayzxon tarixi»  
C) «Muqimhon tarixi» D) «Qipchoqxon tarixi»  
E) Yuqoridagilarning barchasi
17. Mirzo Abdulqodir Bedil qalamiga mansub asarlarni aniqlang.  
A) "To'rt unsur" B) "Irfon" C) "Kulliyot" D) Yuqoridagilarning barchasi.
18. Bedil Turkistonda qanday nom bilan mashhur bo'lgan?  
A) "Abulma'oniylar" B) "Uchinchi muallim" C) "Abulmaoliylar" D) "Malik ush-shuaro"
19. Shoir Sayido Nasafiyning asl kasbi - ...  
A) kulolchilik B) to'qimachilik C) chilangarlik D) najjorlik
20. Sayido Nasafiy qalamiga mansub asarni aniqlang.  
A) "Bahoriston" B) "Guliston" C) "Bahoriyot" D) "Bo'ston"
21. «Tor ko'ngullik beklar» she'riining muallifi kim?  
A) Sayido Nasafiy B) Mushfiqiy C) Mirzo Bedil D) Turdi Farog'iy
22. Xoja Samandar Termiziy, Mutribiy, Mulla Sodiy Samarqandiy kabi arboblarning Buxoro xonligining madaniy hayotida qanday o'rin tutganlar?  
A) Ular shoir bo'lganlar. B) Ular tarixchi bo'lganlar.  
C) Ular tibbiyot bilan shug'ullanganlar. D) Ular me'mor bo'lganlar.
23. Samarqanddagi Sherdor va Tillakori madrasalarini kim qurdirgan?  
A) Imomqulixon B) Subhonqulixon C) Yalangto'shbiy D) Rajab sulton
24. Buxorodagi Labihovuz ansambliga kirgan me'moriy inshootlarni aniqlang.  
A) Nodir devonbegi madrasasi va xonaqohi B) Ko'kaldosh madrasasi  
C) Ernazar elchi madrasasi D) A, B, C
25. Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi qachon qurilgan?  
A) 1619-yilda B) 1635-yilda C) 1652-yilda D) 1680-yilda
26. Imomqulixon qurdirgan inshootlarni aniqlang.  
A) Makka shahridagi chorbog'  
B) Ka'baga kiraverishdagi darvozalardan birining ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yog'och zina  
C) Buxoroda bo'yi 45 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr bo'lgan katta hovuz  
D) A va B
27. Shermuhammadbiy va Xoja Qurbonbiy madrasalari qayerda barpo etilgan edi?  
A) Qarshida B) Samarqandda C) Buxoroda D) Toshkentda